



## Actions to improve the practices of customs crime disclosure

Farkhod GAFUROV<sup>1</sup>

Law Enforcement Academy

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received September 2024

Received in revised form

15 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 December 2024

**Keywords:**

bypassing customs control, crimes committed by bypassing customs control, operational investigative activities, Criminal Code, Criminal Procedure Code, crimes in the customs sphere, operational investigative activities, forensic methods, operational investigative methods, customs authorities.

### ABSTRACT

This scientific article explores the use of operational-search and forensic methods in combating crimes committed by bypassing customs control. It examines scientific approaches proposed by both Uzbek and foreign scholars regarding the essence of customs control evasion methods. Additionally, the article analyzes the specific features of operational investigative and forensic techniques employed in the fight against such crimes. Furthermore, it presents scientifically grounded proposals and recommendations aimed at addressing challenges related to the application of these methods in combating customs offenses.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss11/S-pp555-559>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish amaliyotini takomillashtirish choralari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

bojxona nazoratini chetlab o'tish, bojxona nazoratini chetlab o'tish orqali sodir etiladigan jinoyatlar, tezkor-qidiruv tadbirlari,

Mazkur ilmiy maqolada bojxona nazoratini chetlab sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, bojxona nazoratini chetlab o'tish usulining mazmun-mohiyati, bojxona nazoratini chetlab o'tish

<sup>1</sup> Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Independent Researcher, Law Enforcement Academy. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: fedya90.ivanov@mail.ru

Jinoyat kodeksi,  
Jinoyat-protsessual kodeksi,  
bojxona sohasidagi  
jinoyatlar,  
tezkor-qidiruv faoliyati,  
kriminalistik usullar,  
tezkor-qidiruv usullar,  
bojxona organlari.

usuli orqali sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashishda qo'llaniladigan tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslublarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy yondashuvlari bayon etilgan. Shuningdek, bojxona nazoratini chetlab sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash bo'yicha muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

## Меры по улучшению практики раскрытия таможенных преступлений

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

обход от таможенного контроля, преступления, совершенные путем обхода от таможенного контроля, оперативно-розыскные мероприятия, Уголовный кодекс, Уголовно-процессуальный кодекс, преступления в таможенной сфере, оперативно-розыскная деятельность, криминалистические методы, оперативно-розыскные методы, таможенные органы.

В данной научной статье рассматриваются особенности применения оперативно-розыскных и криминалистических методов в борьбе с преступлениями, связанными с обходом таможенного контроля. Анализируются научные подходы узбекских и зарубежных исследователей к изучению сущности данного способа правонарушений, а также особенности оперативно-розыскных и криминалистических методик, используемых в расследовании подобных преступлений. Кроме того, в статье представлены научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование методов выявления и пресечения преступлений, совершаемых путем обхода таможенного контроля.

### KIRISH

Hozirgi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasida bojxona chegarasi orqali bojxona nazoratini chetlab, ya'ni bojxona nazorati o'rnatilmagan "aylanma yo'llar" (*chegara bojxona posti mavjud bo'lmagan chegara hududlari*) orqali tovar-moddiy boyliklarini olib o'tilishiga qaratilgan bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish holatlari oshib bormoqda. Shu bois, bojxona nazoratini chetlab sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### ASOSIY QISM

Bu borada shuni ta'kidlash joizki, bojxona nazoratini chetlab sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni qo'llash xususiyatlarini tavsiflashda, bojxona nazoratini chetlab o'tish tushunchasining mohiyatini ilmiy tavsifini keltirib o'tish muhim o'rin tutadi. Xususan, o'zbekistonlik olim M.X. Rustambayevning fikriga ko'ra, tovarlarni yoki boshqa qimmatliklarni bojxona nazoratini chetlab olib o'tish deganda, ularni bojxona organlari mavjud bo'lmagan joydan yoki bojxona rasmiylashtirilishi va nazorati amalga oshiriladigan vaqtdan tashqari olib o'tkazishni anglatadi [1, B-730].

Aniqlangan jinoyatlar tahliliga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bojxona nazoratini chetlab o'tish orqali bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish quyidagi usullar va shakllarda amalga oshirilmoqda:

1. Bojxona nazorati o'rnatilmagan "aylanma yo'llar" orqali tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy ravishda olib o'tish usuli.

2. Bojxona nazorati o'rnatilmagan bojxona chegarasi hududlarida qo'shni davlatlarga o'tuvchi "yashirin yer osti yo'llari" tashkil etish orqali tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy ravishda olib o'tish usuli [2, B-1].

3. Bojxona nazorati o'rnatilmagan bojxona chegarasi hududlari orqali qo'shni davlatlar hududidan uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) yordamida tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy ravishda olib o'tish usuli [3, B-1].

4. Bojxona nazorati o'rnatilmagan bojxona chegarasi orqali qo'shni davlatlar hududidan fuqarolar piyoda va avtotransport vositalari yordamida tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy ravishda olib o'tish usuli. [4, B-1].

5. Bojxona nazorati o'rnatilmagan xalqaro Internet tarmog'i orqali turli tovarlarni, asosan (valyuta qimmatliklarini) bojxona chegarasidan olib o'tish usuli. Jumladan, AQSHning Vashingtondagi Milliy mudofaa universiteti professori Selina Realuyo jurnalistlar bilan suhbatda giyohvand moddalar bilan bog'liq tranzaksiyada xalqaro Internet tarmog'i orqali kriptovalyuta va darknetdan avvalgidan ko'ra ko'proq foydalanishni boshlagani sababli jinoyatchilarni aniqlash jarayoni qiyinlashganligini ma'lum qilgan. "Ular shunchaki tezroq moslashmoqda", – deb ta'kidlagan Selina Realuyo [5, B-2-6]. Shuningdek, o'zbekistonlik huquqshunos Murodjon Najmiddinovning fikriga ko'ra, giyohvandlik vositalarining xalqaro oldi-sotdisi onlayn amalga oshirilmoqda. Bunda mijozdan dafina (zakladka) uchun oldindan to'lovni amalga oshirish talab qilinadi. Narkoshoplar tomonidan to'lov Bitcoin, Litecoin, Ethereum – kriptovalyutada qabul qilinadi. To'lov valyutasi sifatida kriptoning tanlanishi sababi shundaki, elektron hamyonning raqamlari orqali uning egasi kim ekanligini aniqlash mushkul [6, B-2-10].

6. Bojxona nazorati o'rnatilmagan, bojxona chegarasining suv yo'li (daryo) orqali turli kontrabanda ashyolarini, asosan (narkotik moddalarni) bojxona chegarasidan olib o'tish usuli.

7. Pochta jo'natmalari, aviatransport va temir yo'l transport vositalari orqali bojxona nazoratidan chetlab o'tgan holda bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etish usuli. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining tezkor-qidiruv qonunchiligiga asosan, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda 16 turdagi tezkor-qidiruv tadbirlari qo'llanilmoqda. Xususan, bojxona nazoratini chetlab o'tish usuli orqali sodir etiladigan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda mazkur 16 turdagi tezkor-qidiruv tadbirlari barchasi to'liq o'tkaziladi. Shu bilan birga, bojxona nazoratini chetlab sodir etiladigan jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik usullar ham qo'llaniladi va o'z samarasini berib kelmoqda. Xususan, bojxona nazoratini chetlab sodir etiladigan jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik usullarni qo'llash masalalarini bir qator o'zbekistonlik va xorijlik olimlar taqiq qilgan. Masalan, o'zbekistonlik olimlar A. Achilov, I. Astanov, M. Do'stovlarning fikriga ko'ra, bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda umumiy va maxsus kriminalistik usullar, xususan, kuzatuv, qiyoslash, o'lchash, tasvirlash, ko'zdan kechirish, eksperiment, modellashtirish, fizikaviy, kimyoviy, statistik, matematik usullardan foydalanilishini ta'kidlab o'tganlar [7, B-17-21]. Shuningdek, tadqiqotchi sifatida shuni aytish joizki, bojxona nazoratini chetlab o'tish orqali sodir etiladigan bojxona sohasidagi jinoyatlarning bir turi bu – "yama"lar hisoblanadi. Bunday turdagi bojxona sohasidagi

jinoyatlarni fosh etishda kriminalistik usullarning o'ziga xos xususiyatlari qo'llaniladi. "Yama" deganda xorijiy davlatlardan bojxona nazoratini chetlab o'tkazilgan tovarlar yashirincha saqlab turiladigan joylardir. Bugungi kunda bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini chetlab o'tgan holda sodir etilgan "yama" ko'rinishidagi bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar (jinoyatlarni) aniqlash holatlari uchrab turibdi. Bunga oid statistik ma'lumotlarni quyidagi jadvaldan yaqqol ko'rish mumkin.

**Jadval № 1**

**2020–2023-yillarda bojxona nazoratini chetlab o'tgan holda sodir etilgan  
bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha  
MA'LUMOT**

Sodir etish usuli	2020		2021		2022		2023	
	holat soni	qiymati (mln. so'mda)	holat soni	qiymati (mln. so'mda)	holat soni	qiymati (mln. so'mda)	holat soni	qiymati (mln. so'mda)
aylanma yo'lda	75	2 379,2	46	2 595,4	30	1 021,5	38	3 851,9
YAMA	138	9 746,7	131	30 063,8	180	15 223,4	140	30 711,0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida ko'rsatilgan bojxona nazoratini chetlab o'tgan holda sodir etilgan "yama" ko'rinishidagi bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish o'ziga xos kriminalistik usullarni qo'llashni talab qiladi. Shuningdek, rossiyalik olimlardan L.A. Ptuxinaning fikriga ko'ra, yuridik shaxslar tomonidan aksiz tovarlarni noqonuniy import qilishning asosiy usullaridan biri bu – bojxona postlarini chetlab o'tish bo'lib, bunday jinoyatlarni fosh etishda ushbu usulda sodir etilgan jinoyatning shart-sharoitlarini inobatga olib, ma'lum bir tezkor-qidiruv va tergov tasmollarini (versiyalarini) ishlab chiqish mumkin [8, B-5].

AQSHlik olimlar Andreas Buehn, Stefan Eichler AQSH chegarasi orqali Meksika davlatiga noqonuniy tovarlar kontrabandasiga qarshi kurashish masalalarini tadqiq qilib, noqonuniy tovarlar kontrabandasi asosan soliq va boj to'lovlaridan bo'yin tovlash bilan bog'liq ekanligini ma'lum qilishgan. Ular o'z tadqiqotlarida noqonuniy tovarlar kontrabandasiga qarshi kurashish uchun AQSH chegaralarini nazorat qilishni kuchaytirish zarurligini ta'kidlab o'tishgan [9, B-1-18]. Xususan, rossiyalik olimlar V.A. Gaujayeva va S.V. Inozemsevlarning fikriga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv tadbirlarini va dastlabki tergov harakatlarini o'tkazishda uchuvchisiz uchish apparatlarini qo'llash imkoniyatlari mavjud. Xususan, ularning fikriga ko'ra, hozirgi kunda uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida inson borishi va kirishi qiyin va to'siqinlik bo'lgan hududlar, tog'li hududlar va botqoqliklarni masofadan turib ko'zdan kechirish, voqea sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, jinoyatchilarni "izlar issig'ida" izidan tushish va aniqlash, ularning harakatlarini kuzatish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, mazkur olimlar uchuvchisiz uchish apparatlarining tezkor-qidiruv tadbirlarida qo'llashning quyidagi ijobiy xususiyatlarini ta'kidlagan: dizayn va foydalanishning soddaligi, manevrlik va ishonchlik, masofadan boshqarish imkoniyatining borligi, yuqori aniqlikdagi tasvirlarni, shu jumladan onlayn rejimida olish imkoniyatining mavjudligi [10, B-117-119].

## XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, bojxona nazoratini chetlab sodir etiladigan jinoyatlarni fosh etish maqsadida quyidagi taklifni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– bojxona organlari Kontrabandaga qarshi kurashish tezkor tuzilmalari faoliyatida bojxona nazoratini chetlab sodir etiladigan bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o'tkazilayotgan **tezkor kuzatuv, turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish, nazorat ostida olish, nazorat ostida yetkazib berish va tezkor vaziyatdan kelib chiqib, boshqa turdagi tezkor-qidiruv tadbirlarida uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)dan foydalanishni yo'lga qo'yish;**

– O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari Kontrabandaga qarshi kurashish tuzilmalarini uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) bilan ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, bojxona nazoratini chetlab sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashishda uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar)dan foydalanishni yo'lga qo'yish tezkor-qidiruv va kriminalistik usullarni takomillashtirishga va bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. 2016. B. 730.
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/04/18/tunnel>. B.-1.
3. [https://uz24.uz/uz/articles/dron\\_yordamida\\_kontrabanda](https://uz24.uz/uz/articles/dron_yordamida_kontrabanda). B-1.
4. <https://daryo.uz/k/2022/07/24/namanganda-mashina-yukxonasining-maxfiy-joyida-11-mlrd-somlik-noqonuniy-tovarlar-aniqlandi-video>. B-1.
5. Celina B. Realuyo (Professor of Practice at the William J. Perry Center for Hemispheric Defense Studies at the National Defense University, USA). The Impact of COVID-19 on the Economy, Security and Transnational Organized Crime in the Americas. WILLIAM J. PERRY CENTER FOR HEMISPHERIC DEFENSE STUDIES. Regional Insights. 2020 Edition, No. 4 (October). P. 2-6.
6. Najmiddinov M. "Narkograffiti, onlayn narkoshoplar va kriptovalyuta. Zamonaviy narkobiznes". Ilmiy maqola. B-2-10.
7. Achilov A., Astanov I., Do'stov M. "Bojxona organlarida kriminalistika". O'quv qo'llanma. Toshkent-2019. B-17-21.
8. Ptuxina L.A. kriminalisticheskaya xarakteristika i yo rol v raskritii i rassledovanii prestupleniy, svyazannix s tamojennim peremещением товаров i predmetov. Statya. Biznes v zakone. 3-4. 2006. Str-5.
9. Andreas Buehn, Stefan Eichler. Smuggling Illegal versus Legal Goods across the U.S.-Mexico Border: A Structural Equations Model Approach. Southern Economic Journal. Vol. 76, No. 2 (Oct., 2009), pp. 328-350 (23 p). R-1-18.
10. Gaujayeva V.A., Inozemsev S.V. "Primeneniye bespilotnix letatelnix apparatov pri provedenii pervonachalnix sledstvennix deystviy i operativno-rozisknix meropriyatiy". Statya. Pravo i upravleniye. № 2-2023. Str.-117-119.